

To‘xtayev Bobir-Mirzo Avazovich

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Mehnat va ijtimoiy masalalar qo‘mitasi kotibiyati Katta referenti.
Mustaqil izlanuvchi*

“ELEKTRON PARLAMENT” TUSHUNCHASINING GENEZISI

Tuxtayev Bobir-Mirzo Avazovich

*Senior Assistant of the Secretariat of the Committee on Labor and Social Affairs of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan.
Independent researcher.*

GENESIS OF THE CONCEPT OF E-PARLIAMENT

Тухтаев Бобир-Мирзо Авазович

*Старший референт секретариата Комитета по труду и социальным вопросам Законодательной палаты Олий Мажлиса Республики Узбекистан.
Самостоятельный соискатель.*

ГЕНЕЗИС ПОНЯТИЯ ЭЛЕКТРОННОГО ПАРЛАМЕНТА

“Elektron parlament” tushunchasining genezisi

Bugungi kunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining doimiy rivojlanib borishi, sohalarga keng joriy etilishi kabi raqamlashuv jarayonlari jamiyat hayotining barcha tarmoqlarini qamrab olmoqda. Xususan, ko‘plab davlatlarda oliy vakillik organi bo‘lmish parlament faoliyatida ham raqamli texnologiyalardan keng foydalanilishi natijasida yangi **“elektron parlament”** atamasini vujudga keldi.

Eng umumiy ma’noda elektron parlament bu – mazkur soha faoliyatida samaradorlikni ta’minlash maqsadida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalar majmuidan foydalanishdir.

Mamlakatimiz sharoitida ushbu tushunchaga qo‘yidagicha ta’rif beriladi: “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis deputatlari, senatorlari va xodimlarining

yanada samarali faoliyatini ta'minlash, ular faoliyati baholash, saylovchilar oldidagi hisobdorligi oshirish hamda parlamentning umumiy ochiqqligini ta'minlashga qaratilgan kompleks dasturiy tizimidir.”

Elektron parlament tushunchasining yuzaga kelishi dastlab ba'zi davlatlar parlament rasmiy veb-sahifalarida raqamli xizmatlarning paydo bo'lishi va parlament a'zolarining (deputatlar) kundalik ishlariga ko'maklashish hamda qarorlar qabul qilishda fuqarolarni jalb etishda axborot kommunikatsiya vositalarini qo'llash bilan bog'liq edi.

Elektron parlament tushunchasiga ilk bor Yevropa parlament tadqiqotlar va hujjatlashtirish markazi (*European Centre for Parliamentary Research and Documentation*) tomonidan ta'rif berilib, shaffoflik, samaradorlik va moslashuvchanlik ta'minlash uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va standartlarini qo'llash orqali tomonlar muloqotini shakllantirish sifatida qayd etadi.¹

Birlashgan Millat Tashkiloti, parlamentlararo ittifoq va parlament sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalar global markazi hisobotida elektron parlamentga qo'yidagicha ta'rif beriladi: “qonun chiqaruvchi organ axborot-kommunikatsiya texnologiyalar orqali shaffof, ochiq va hisobdor bo'lishi bilan birga fuqarolarning ijtimoiy hayotda faol bo'lishlari, parlament faoliyati va qarorlaridan xabardor bo'lib borishiga imkonini beradi. Manfaatdor tomonlar axborot-kommunikatsiya texnologiyalar yordamida vakillik, qonun ijodkorligi va nazorat vazifalarini amalga oshiradi.”

Parlament faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalar foydalanish 2000 yillarda yuzaga kelgan fenomen emas. Mazkur sohada innovatsion vositalardan ilgari ham foydalanilgan bo'lib, Internetning vujudga kelishi esa elektron parlamentning rivojlanishida muhim bosqich bo'lib xizmat qildi.

Misol uchun, Kanada parlamenti Jamoalar palatasi har bir a'zosi shaxsiy ofis, mebel, kompyuter, lazer printer, yozuv mashinkalari, televizor, telefon va boshqa ofis jihozlari bilan ta'minlanadi. Keyinchalik esa Internet vujudga kelgach parlament a'zolari mazkur texnologiyadan foydalanishga o'tishadi.²

Hindiston ham parlamentda axborot texnologiyalaridan foydalanishga muhim ahamiyat qarata boshlagan davlatlardan biri edi. Xususan, 1985-yilda milliy axborot markazi (*National Informatics Center*) ko'magida parlament kutubxonasi axborot tizimini (*Parliament Library Information System*) boshqarish uchun kompyuter

¹ ECPRD, ICT Working Group Seminar, 6-7 November 2003, Nicosia, Cyprus.

² Perrault RJ “Services for Members-Canadian MPs and the resources for representation”, *The Parliamentarian*, Journal of The Commonwealth Parliamentary Association, January 1997

markazi ishga tushurildi. Parlament a'zolari va tadqiqotchilariga milliy parlament faoliyati to'g'risida zarur ma'lumotlarni olish imkonini beruvchi turli ma'lumotlar bazalari (ta'sis majlisidagi muhokamalar, parlament sessiyalarining video lavhalari, qonun loyihalari, parlament qo'mitasining hisobotlari va deputatlarning tarjimaiy hollari) yaratiladi.¹

1960-yillarda Germaniya Bundestagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda parlament materiallari uchun hujjatlar va axborot tizimini ishlab chiqishga qaror qildi. Mazkur loyihani amalga oshirish uchta bosqich iborat edi:

- parlament materiallarini komputershtatgan xujjatlar va axborot tizimini ishlab chiqish;
- tashqi ma'lumotlar bazalaridan ma'lumotlarni olish;
- ekonometrik modellar asosida qonunlarning amaliyotda ta'sirini baholash.

Dastlab mazkur ma'lumotlar bazasi ma'muriy xizmatlar ko'rsatish vositasi sifatida Bundestag a'zolariga bilvosita yordam bergan. Ammo 1985-yilda Bundestag a'zolariga to'g'ridan-to'g'ri ma'lumotlar bazasiga kirish va foydalanish huquqi beriladi.²

1997-yilda Daniya parlamentining veb-sayti ishga tushiriladi. Bundan ko'zlangan maqsad parlament hujjatlarini xalq, biznes sohasi vakillari va ommaviy axborot vositalari uchun ochiq qilish edi. Shuningdek, veb-saytdan parlament palatalaridagi muhokamalar, deputatlar va moliya masalalari haqida ma'lumot olish mumkin bo'lib asosan funksional maqsadlarda xizmat qilish uchun tashkil etilgan edi. Daniya parlamentining sobiq spikeri va veb-saytning bosh tashabbuskori Erling Olsen veb-sayt uchta asosiy maqsadni ko'zlangan holda tashkil etilgan deya ta'kidlagan.

Xususan, 1) jurnalistlar va siyosatchilarga yanada samarali axborot xizmatlarini taqdim etish; 2) siyosatchilar va davlat xizmatchilarini qonunchilik jarayonlariga rioya etishlari; 3) shaffoqlikni oshirish.³

¹ Malhotra GC "Automating Parliaments," The Parliamentarian, Journal of The Commonwealth Parliamentary Association July 1995 and Mishra, SN "House Infrastructure- Support services for Indian's national Parliamentarians "The Parliamentarian, Journal of The Commonwealth Parliamentary Association, January 1997.

² Mambrey P, Neumann H-P and Sieverdingbeck K "Bridging the Gap between Parliament and Citizen-the internet Services of the German Bundestag", Parliamentary Affairs (OUP). Vol 52, Issue 3, 1999 pp480-492.

³ Lofgren K, Andersen KV and Sorensen MF "The Danish Parliament Going Virtual" Parliamentary Affairs (OUP). Vol 52, Issue 3, 1999 pp493-502